



SMART SHARTNOMALAR VA ULARNING O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDAGI O'RNI

Maxammadxonov Shohjaxon Bahromjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Shohjaxon0201@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida smart shartnomalarning huquqiy tabiati, ularning O'zbekiston Respublikasida tatbiq etilishi va qonunchilik bilan uyg'unligi IMRAD uslubida tahlil qilinadi. Smart shartnomalarning an'anaviy shartnoma huquqidan farqli jihatlari, blokcheyn texnologiyasiga asoslangan mexanizmlari, hamda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va Elektron tijorat to'g'risidagi Qonuni doirasidagi huquqiy asoslari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada xorijiy tajriba va amaliyotlar ham solishtirma tahlil asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: aqlli shartnomalar, blokcheyn, raqamli iqtisodiyot, O'zbekiston qonunchiligi, shartnoma huquqi.

Аннотация: В данной статье анализируется правовая природа и особенности применения умных контрактов в условиях цифровой экономики, а также их место в законодательстве Республики Узбекистан. Рассматриваются различия между умными контрактами и традиционными договорами, их технологические основы на базе блокчейн-систем, а также юридические аспекты, вытекающие из Гражданского кодекса и Закона Республики Узбекистан «Об электронной коммерции». Особое внимание уделяется сравнительному анализу международного опыта.

Ключевые слова: умные контракты, блокчейн, цифровая экономика, гражданское право, Узбекистан.

Annotation: This article analyzes the legal nature and implementation of smart contracts in the context of the digital economy, focusing on their place within the legislation of the Republic of Uzbekistan. It highlights the distinctions between smart and traditional contracts, explores their blockchain-based mechanisms, and examines their legal framework under the Civil Code and the Law on Electronic Commerce of Uzbekistan. Comparative analysis with international practices is also provided.

Keywords: smart contracts, blockchain, digital economy, Uzbekistan legislation, contract law.

Kirish

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi huquqiy munosabatlar tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, blokcheyn texnologiyasi va smart shartnomalar institutining shakllanishi shartnoma huquqini yangi bosqichga olib chiqdi. Smart



shartnomalar – bu raqamli kod asosida ishlaydigan avtomatlashtirilgan huquqiy bitimlar bo‘lib, ular inson aralashuvisiz shartnomani ijro etish imkonini beradi. Ushbu shartnomalarning ijobiy jihati shundaki shartnoma taraflari barcha narsani ko‘rib turishi mumkin. Agar bir taraf shartnoma shartlarini buzsa, shartnoma shartlarida keltirilgan harakatlar avtomatik ravishda ishga tushadi yoki bir taraf majburiyatni bajarsa ikkinchi tarafdin ham majburiyatlar avtomatik bajariladi. Misol uchun shaxs o‘z mashinasini sug‘irtalasa va ushbu mashina avtohalokatga uchrasa smart shartnomasi bo‘yicha avtomatik ravishda sug‘urta pullari shaxsni hisob raqamiga o‘tkazib beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola yozish davomida normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy usul va tizimli yondashuvdan foydalandim. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Elektron tijorat to‘g‘risidagi Qonuni, hamda xorijiy davlatlarning (AQSh, Estoniya, Singapur) smart shartnomalar haqidagi huquqiy amaliyoti tahlil qilib, ularni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga tatbiq qilish masalasini ko‘rib chiqdim. Ularni tahlil qilish davomida davlatimizda smart shartnomalarni huquqiy jihatdan tartibga solish bo‘yicha juda ko‘p ishlar amalga oshirishi lozim ekanligini ko‘rib chiqdim.

Natijalar va muhokama

O‘rganishlarimga ko‘ra smart shartnomalarining aniq bir tushunchasi, huquqiy maqomi O‘zbekiston qonunchiligida to‘liq mustahkamlanmagan bo‘lsada, smart shartnomalarni tuzish bo‘yicha umumiy tushunchalar mavjud. Misol uchun, Fuqarolik kodeksining 366-moddasida shartnomaning shakli haqida ma‘lumot berilgan bo‘lib, unga ko‘ra taraflar rozi bo‘lsa elektron shaklda ham bo‘lishi mumkin ekanligi keltirib o‘tilgan. Bu qoida smart shartnomalarni huquqiy maqomini belgilab, amaliyotga keng tatbiq etish uchun bir zamin vazifasini yaratadi desak adashmagan bo‘lamiz. “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonunning 4-bobi elektron shartnomalarga bag‘ishlangan bo‘lib, elektron shartnomalar haqidagi asosiy qoidalar ushbu bobda keltirib o‘tilgan. Unga ko‘ra agar taraflar o‘zaro kelishib elektron shartnoma imzolashgan bo‘lsa, bu odatiy shartnomalarga tenglashtirilishi keltirib o‘tilgan. Ushbu qonunning 14-moddasiga ko‘ra shartnomalarni tuzish chog‘ida qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida hujjatni o‘z qo‘li bilan imzolash talab qilingan hollarda elektron hujjat, agar shartnoma tarafi tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash tartib-taomili bajarilsa, imzolangan deb hisoblanadi deb alohida belgilab qo‘yilgan.

Xorijiy davlatlarda esa bizdan boshqacharoq. Ular allaqachon smart shartnomalarning huquqiy maqomini belgilab qo‘ygan. Masalan AQShning Arizona shtatida smart shartnomalarga huquqiy maqom berilgan bo‘lsa, Estoniya va Singapurda ular blokcheyn asosidagi davlat xizmatlariga joriy etilgan. Ushbu xorijiy davlat tajribalaridan foydalanib O‘zbekistonda ham smart shartnomalarini tizimini ishlab chiqishimiz lozim deb hisoblayman. Chunki ular smart shartnomalarni joriy





qilib, o'zlarini amaliyotlari davomida kamchiliklarini to'g'rilab, hozirgi vaqtga kelib ancha mukammal holatga keltirib qo'yishgan.

Xulosa

Xulosa qiladigan bo'lsak smart shartnomalar huquqiy tizimni raqamlashtirish va iqtisodiy munosabatlarda ishonchlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ularni keng targ'ib etish orqali turli xildagi huquqbuzarliklarini oldini olishimiz, yuridik shaxslarni shartnoma tuzish sohasidagi faoliyatini osonlashtirishimiz, sudlardagi ishlar hajmini keskin ravishda kamaytirishimiz mumkin. Bu yo'lda birinchi navbatda Fuqarolik kodeksimizda smart shartnomalar tushunchasini kiritishimiz va alohida qonun hujjati bilan smart shartnomalarni tuzish tartib-tamoyillarini belgilab qo'yishimiz lozim. Yuqorida aytib o'tganimdek smart shartnomalarni joriy etish sud amaliyotida barqarorlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan manbalar

1. Szabo, N. (1997). The Idea of Smart Contracts. http://www.fon.hum.uva.nl/rob/Courses/InformationInSpeech/CDROM/Literature/LOTwinterschool2006/szabo.best.vwh.net/smart_contracts_idea.html
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-sonli qarori "O'zbekiston Respublikasida Raqamli iqtisodiyotni va kripto aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". (<https://lex.uz/docs/-3806053>)
3. Werbach, K., & Cornell, N. (2017). Contracts Ex Machina. Duke Law Journal.
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
5. Arizona State Law. Blockchain and Smart Contracts Legal Recognition Act (2017).